


## 2020-yil 1-fevral holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

*(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)*

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2020-yilning 1-fevral holatiga 45141 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,3 foizga o'sgan. Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 7233 ta (22,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 39307 tani tashkil etgan.




## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 25,7 % savdo, 19,5 % sanoat, 11,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari, 8,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,9 % qurilish, 3,4 % tashish va saqlash, 1,5 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,4 % axborot va aloqa hamda 21,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)

	<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	01.02.2019 yil	4022 ta
		01.02.2020 yil	4986 ta
	<b>Sanoat</b>	01.02.2019 yil	7065 ta
		01.02.2020 yil	8823 ta
	<b>Qurilish</b>	01.02.2019 yil	2762 ta
		01.02.2020 yil	3567 ta
	<b>Savdo</b>	01.02.2019 yil	8634 ta
		01.02.2020 yil	11583 ta
	<b>Tashish va saqlash</b>	01.02.2019 yil	1244 ta
		01.02.2020 yil	1537 ta
	<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	01.02.2019 yil	2907 ta
		01.02.2020 yil	3601 ta
	<b>Axborot va aloqa</b>	01.02.2019 yil	523 ta
		01.02.2020 yil	613 ta
	<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	01.02.2019 yil	596 ta
		01.02.2020 yil	686 ta
	<b>Boshqa turlar</b>	01.02.2019 yil	8872 ta
		01.02.2020 yil	9745 ta

## Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)



Hududlar kesimida ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Zangiota (5071 ta), Qibray (4365 ta), Toshkent (3301 ta), Yuqorichirchiq (2453 ta) tumanlari va Angren shahar (2774 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Ohangaron (1127 ta), Piskent (1158 ta), Oqqo'rg'on tumanlari (1203 ta) hamda Ohangaron shahrida (1039 ta) korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 39307 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 7233 ta (22,6 %) ga o'sgan.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Zangiota (4390 ta), Qibray (3630 ta), Toshkent (2820 ta), O'rtachirchiq (2209 ta) tumanlari va Chirchiq (2240 ta), Angren (2232 ta), shaharlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Bo'ka (931 ta), Ohangaron (991 ta), Oqqo'rg'on (1048 ta), Piskent (1070 ta) Bekobod (1114 ta), Chinoz tumanlari (1115 ta) hamda Ohangaron (911 ta) va Nurafshon shahrida (1113 ta) korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


## Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)


2020-yil yanvar oyida 811 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilning shu davriga nisbatan 36,1 % ga kam tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni o‘shish dinamikasi, birlikda (fermer va dehqon xo‘jaliklardan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Zangiota (125 ta), Toshkent (70 ta), Qibray (67 ta), Yangiyo‘l (47 ta), Yuqorichirchiq (42 ta) tumanlari va Chirchiq shahri (49 ta) hissasiga to‘g‘ri keladi. Aksincha, Chinoz (13 ta), Piskent (17 ta), Ohangaron (19 ta) tumanlari va Ohangaron, Yangiyo‘l (18 tadan) shaharlarida korxonalar va tashkilotlarning tashkil etilish ko‘rsatkichi past darajani aks ettirgan.

## 2020-yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)





Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (330 ta), sanoat (127 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari (86 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (81 ta) hamda qurilish (70 ta) sohalariga va eng kamida tashish va saqlash (18 ta), axborot va aloqa (10 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (7 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


## Tijorat korxonalar

*(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)*

2020-yil 1-fevral holatiga 33642 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar –23937 ta, xususiy korxonalar –6216 ta, oilaviy korxonalar –2908 ta, unitar korxonalar – 297 ta, aksiyadorlik jamiyatlar – 50 ta va boshqalar 234 tani tashkil etgan.

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining ulushi, foizda

*(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)*





## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-fevral holatiga 27232 tani tashkil etib, ulardan 23937 tasi yoki 87,9 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 607 taga yoki 29,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yilning yanvar oyida 607 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 237 taga kam tashkil etilgan.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning soni, birlikda

Iqtisodiy faoliyat turlar nomi	01.02.2020 yil		2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	
<b>Jami</b>	<b>27232</b>	<b>23937</b>	<b>607</b>
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari	3881	3442	74
Sanoat	6232	5494	87
Qurilish	2881	2528	63
Savdo	7519	6625	253
Tashish va saqlash	1359	1191	18
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1896	1602	49
Axborot va aloqa	356	281	8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	362	341	5
Boshqa turlari	2746	2433	50



## Xususiy korxonalar

Ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni 2020-yilning 1-fevral holatiga 7937 tani tashkil etib, ulardan 6216 tasi yoki 78,3 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 348 taga yoki 5,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yilning yanvar oyida 71 ta xususiy korxonalar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 207 taga kam tashkil etilgan.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xususiy korxonalar soni, birlikda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.02.2020 yil		2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	
<b>Jami</b>	<b>7937</b>	<b>6216</b>	<b>71</b>
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari	537	381	2
Sanoat	1335	1057	7
Qurilish	582	441	5
Savdo	3093	2459	42
Tashish va saqlash	130	95	
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1022	789	7
Axborot va aloqa	189	133	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	172	158	
Boshqa turlari	877	703	7



## Oilaviy korxonalar


Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-fevral holatiga 3209 tani tashkil etib, ulardan 2908 tasi yoki 90,6 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1274 taga yoki 65,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yilning yanvar oyida 105 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 taga kam tashkil etilgan.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha oilaviy korxonalarining soni, birlikda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.01.2020 yil		2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	
<b>Jami</b>	<b>3209</b>	<b>2908</b>	<b>105</b>
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari	378	319	3
Sanoat	1077	985	31
Qurilish	21	19	2
Savdo	849	793	34
Tashish va saqlash	25	21	
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	661	592	25
Axborot va aloqa	14	11	
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	15	14	1
Boshqa turlari	169	154	9

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimoti, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

*(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)*

2020-yil 1-fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 33375 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 26,2 % ga oshgan.

## Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

*(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)*

Hududlar nomi	Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	shundan:	
		kichik korxonalar	mikrofirmalar
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>33375</b>	<b>31234</b>	<b>2141</b>
Oqqo'rg'on	856	819	37
Ohangaron	807	763	44
Bekobod	892	856	36
Bo'stonliq	1480	1372	108
Bo'ka	727	686	41
Quyichirchiq	992	962	30
Zangiota	3929	3682	247
Yuqorichirchiq	1871	1730	141
Qibray	3106	2929	177
Parkent	1612	1552	60
Piskent	872	826	46
O'rtachirchiq	1936	1839	97
Chinoz	875	827	48
Yangiyo'l	1876	1771	105
Toshkent	2536	2366	170
Nurafshon sh.	909	849	60
Olmalik sh.	1486	1368	118
Angren sh.	1862	1698	164
Bekobod sh.	1041	977	64
Ohangaron sh.	787	731	56
Chirchiq sh.	1872	1690	182
Yangiyo'l sh.	1051	941	110


**2020-yil 1-fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning umumiy sonidagi tumanlarning ulushi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)

• Eng katta ulushi	• Eng kichik ulushi
Zangiota tumani 11,8 %	Nurafshon shahri 2,7 %
Qibray tumani 9,3 %	Bekobod tumani 2,7 %
Toshkent tumani 7,6 %	Chinoz tumani 2,6 %
O'rtachirchiq tumani 5,8 %	Piskent tumani 2,6 %
Angren shahri 5,6 %	Oqqo'rg'on tumani 2,6 %
Yangiyo'l tumani 5,6 %	Ohangaron tumani 2,4 %
Chirchiq shahri 5,6 %	Ohangaron shahri 2,4 %
Yuqorichirchiq tumani 5,6 %	Bo'ka tumani 2,2 %

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3929 tasi (11,8 %) Zangiota, 3106 tasi (9,3 %) Qibray, 2536 tasi (7,6 %) Toshkent, 1936 tasi (5,8 %) O'rtachirchiq, 1876 tasi (5,6 %) Yangiyo'l, 1871 tasi (5,6 %) Yuqorichirchiq tumanlari hamda 1872 tasi (5,6 %) Chirchiq, 1862 tasi (5,6 %) Angren, shaharlari hissalariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 33375 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 9893 ta (29,6 %) - savdo, 7584 ta (22,7 %) - sanoat, 4225 ta (12,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3034 ta (9,1 %) - qurilish, 2975 ta (8,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 1305 ta (3,9 %) - tashish va saqlash, 511 ta (1,5 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 435 ta (1,3 %) - axborot va aloqa, shuningdek 3413 tasi (10,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)





2020-yil yanvar oyida 795 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 440 taga kam tashkil etilgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlar Zangiota (123 ta), Toshkent (69 ta), Qibray (66 ta), Yangiyo'l (46 ta), Yuqorichirchiq (42 ta) tumanlari va Chirchiq (48 ta) shahri hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Chinoz (13 ta), Piskent (16 ta), Ohangaron (18 ta) tumanlarida hamda Ohangaron, Yangiyo'l (18 tadan) shaharlarida tashkil etilgan.

**2020-yilning yanvar oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa ularning eng ko‘p soni savdoda – 330 ta, sanoatda - 127 ta, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida - 86 ta, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda - 81 ta hamda qurilishda - 70 ta tashkil etilgan. Eng kamida esa tashish va saqlashda -18 ta, axborot va aloqada - 10 ta hamda sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish -6 ta tashkil etilgan.

## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-fevral holatiga 3209 tani tashkil etib, ulardan 2908 tasi yoki 90,6 % faoliyat ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro‘yxatidan o‘tganlarning hamda faoliyat ko‘rsatayotganlarning umumiy soni o‘rtacha 67,7 % ga oshganligini ta’kidlash lozim.


### Oilaviy korxonalarni o‘tgan yilga nisbatan soni, birlikda




## Oilaviy korxonalarining soni to'g'risida ma'lumot (birlikda)

Hududlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>3209</b>	<b>2908</b>	<b>105</b>
Oqqo'rg'on	98	90	19
Ohangaron	63	53	
Bekobod	37	36	3
Bo'stonliq	228	202	6
Bo'ka	54	39	
Quyichirchiq	18	18	
Zangiota	369	327	8
Yuqorichirchiq	279	268	13
Qibray	201	187	7
Parkent	262	251	5
Piskent	32	28	
O'rtachirchiq	312	306	12
Chinoz	107	95	3
Yangiyo'l	298	272	5
Toshkent	345	309	11
Nurafshon sh.	95	87	3
Olmalik sh.	70	63	3
Angren sh.	127	95	2
Bekobod sh.	38	35	
Ohangaron sh.	56	51	3
Chirchiq sh.	18	16	1
Yangiyo'l sh.	102	80	1

## Oilaviy korxonalarining o'rish dinamikasi, birlikda




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 33,9 % yoki 985 tasi sanoat, 27,3 % yoki 793 tasi savdo, 20,4 % yoki 592 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 11,0 % yoki 319 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,7 % yoki 21 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 19 tasi qurilish, 0,5 % yoki 14 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,4 % yoki 11 tasi axborot va aloqa hamda 5,3 % yoki 154 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining ulushi, %




Agarda, 2020-yil 1-fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining sonini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi – sanoat hamda savdoda, eng kami esa – sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## 2020-yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>105</b>	<b>100,0</b>
Oqqo'rg'on	19	18,1
Ohangaron		
Bekobod	3	2,9
Bo'stonliq	6	5,7
Bo'ka		
Quyichirchiq		
Zangiota	8	7,6
Yuqorichirchiq	13	12,4
Qibray	7	6,7
Parkent	5	4,8
Piskent		
O'rtachirchiq	12	11,4
Chinoz	3	2,9
Yangiyo'l	5	4,8
Toshkent	11	10,5
Nurafshon sh.	3	2,9
Olmaliq sh.	3	2,9
Angren sh.	2	1,9
Bekobod sh.		
Ohangaron sh.	3	2,9
Chirchiq sh.	1	1,0
Yangiyo'l sh.	1	1,0

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Oqqo'rg'on (19 ta), Yuqorichirchiq (13 ta), O'rtachirchiq (12 ta) va Toshkent (11 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Piskent, Quyichirchiq, Ohangaron, Bo'ka tumanlari hamda Bekobod shahrida ularning tashkil etilishi kuzatilmadi.

## 2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %





Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,4 % yoki 34 tasi savdo, 29,5 % yoki 31 tasi sanoat, 23,8 % yoki 25 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 2,9 % yoki 3 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari, 1,9 % yoki 2 ta qurilish, 1,0 % yoki 1 ta sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 8,5 % yoki 9 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil 1-fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 1170 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 307 taga yoki 35,6 % ga o'sgan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Zangiota-143 ta (jamidagi ulushi 12,2 %), Qibray-115 ta (9,8 %), Yuqorichirchiq – 94 ta (8,0 %) tumanlari va Angren– 82 ta (6,8 %) shahrida tashkil etilgan. Eng kam xorijiy capital ishtirokidagi korxonalar Bo'ka, Bekobod, Oqqo'rg'on-9 tadan (0,8 %), Piskent-15 ta (1,3 %) va Chinoz-19 ta (1,6 %) tumanlarida tashkil etilgan.


### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sish dinamikasi, birlikda








Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 604 tasi qo'shma, 566 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda

	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxonona	Xorijiy korxonona
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>1170</b>	<b>604</b>	<b>566</b>
Oqqo'rg'on	9	5	4
Ohangaron	69	29	40
Bekobod	9	7	2
Bo'stonliq	43	24	19
Bo'ka	9	5	4
Quyichirchiq	39	21	18
Zangiota	143	71	72
Yuqorichirchiq	94	51	43
Qibray	115	60	55
Parkent	22	11	11
Piskent	15	10	5
O'rtachirchiq	77	41	36
Chinoz	19	11	8
Yangiyo'l	69	24	45
Toshkent	68	40	28
Nurafshon sh.	52	25	27
Olmaliq sh.	39	13	26
Angren sh.	82	56	26
Bekobod sh.	20	14	6
Ohangaron sh.	41	18	23
Chirchiq sh.	80	51	29
Yangiyo'l sh.	56	17	39

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi, %




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yilning yanvar oyining yakuni bo'yicha xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 18 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 taga kam tashkil etilgan.

Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosan Zangiota (4 ta), Yuqorichirchiq (3 ta), Ohangaron (2 ta) Bo'stonliq, Bo' ka (1 tadan) tumanlari va Nurafshon (5 ta), Olmaliq, Chirchiq (1 tadan) shaharlari hissalariga to'g'ri keladi. Qolgan hududlarda yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar kuzatilmadi.

## 2020-yilning yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda




Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlarining kapitali ishtirokida 6 ta, Turkiya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi 3 tadan, Ukraina, Afg'oniston Islom Respublikasi 2 tadan, Qozog'iston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Eron Islom Respublikasi va Turkmaniston davlatlar kapitali ishtirokida 1 tadan korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 9 tasi sanoat, 4 tasi savdo, 3 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari hamda 2 tasi qurilish faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

2020-yilning yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi boshlig'i  
Xasan Igamberdiyev  
Tel.:71-230-86-84